# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING
# QARORI

2023 - yil 20 - yanvar 25-10-0-Q/23 Toshkent viloyati hokimiligi

**Toshkent viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan 2023-yilda foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi 1992-yil, 1-son 45-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 12-fevraldagi 5666-sonli farmoni, Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2009-yil, 15-son 186-modda) talablari asosida, viloyat hududidagi bo‘sh turgan bino-inshootlardan oqilona foydalanish, ularga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq ta‘minlash hamda kutilayotgan xarajatlar bilan korxona tashkilot va muassasalarning ijara to‘lovidan tushadigan daromadlarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan, qaror qilaman**:**

1. Davlat ko‘chmas mulklaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlarining eng kam stavkalari Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2022-yil 30-dekabrdagi 01/26-19/1122-son bilan kiritilib, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 02-24/10-5709-son va Moliya vazirligining 02/04-32/15-sonli kelishuvi inobatga olinsin.

2. Toshkent viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan 2023-yilda foydalanganlik uchun ijara to‘lovining 1 kv.m uchun eng kam stavkalari 1 va 2-ilovalarga hamda ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan

maydonlarda (asfaltlangan yoki betonlashtirilgan hududlarda) radio, uyali va peydjing aloqa antenalari oʻrnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi toʻlovlari hisoblanishi tartibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Davlat mulkini balansda saqlovchilarning mansabdor shaxslari:

yil choragida kamida bir marta oʻzining tasarrufida boʻlgan davlat mulkini xatlovdan oʻtkazishlari;

foydalanilmayotgan davlat mulki toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning markazga oʻz vaqtida, toʻliq, shuningdek, ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati toʻgʻrisidagi taqdim etilgan axborotning ishonchliligi;

ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berish, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va sonini ataylab notoʻgʻri qayd etilganligi, buning natijasida ijara toʻlovining yashirilishiga olib kelganligi uchun bevosita qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

5. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Boʻsh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi boshligʻi (S.Oʻrazboyev)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish;

ijaraga berilayotgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablagʻlarni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki boʻyicha maʼlumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;

ijaraga beriladigan obyektlardan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek, ijara toʻlovi oʻz vaqtida va toʻliq toʻlanishini nazorat qilish;

ijaraga berilgan davlat mulkini har choraklik asosida xatlovdan oʻtkazish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi toʻgʻrisidagi eʼlonlarni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 5666-sonli farmoniga asosan ijaraga berilayotgan davlat koʻchmas mulk obyektlarini ijaraga berish boʻyicha savdolar “E-auksion.uz” elektron savdo maydonchasi orqali amalga oshirilishi belgilanganligi inobatga olinsin;

viloyat hududida foydalanilmayotgan, boʻsh turgan binolar va inshootlarni aniqlab, samarali foydalanilishini taʻminlash maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarga belgilangan tartibda ijaraga berish vazifalari yuklatilsin.

Toshkent haqiqati gazetasi bosh muharriri (G‘.Sheraliyev) davlat mulki bo‘lgan noturar joy, bino-inshootlarini ijaraga berishda Toshkent haqiqati gazetasida e’longa berilishida bepul joylashtirilishi ta’minlansin.

6. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (R.Raimov), shahar va tuman hokimliklari, hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulkini hisobotini to‘g‘ri yuritish va budjetga qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilar tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi (S.O‘razboyev) bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ysinlar.

7. Shahar va tuman hokimlariga mazkur qarorning 3-ilovasidan kelib chiqib, mulkning joylashgan manzilini inobatga olgan holda hududiy zonalarni (1-2-3-4-zona) 2023-yil 31-yanvarga qadar belgilash yuklatilsin.

8. Viloyat hududida 2023-yilda davlat mulki bo‘lgan binolar va xonalarda joylashgan budjet tashkilotlari uchun ijara to‘lovining “nol” stavkasi belgilansin.

9. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 3-fevraldagi 61-10-0-Q/22-son “Toshkent viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan 2022-yilda foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror Toshkent haqiqati gazetasida rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari N. Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent viloyati hokimi** **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2023 yil 20 yanvardagi
25-10-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

## Toshkent viloyatida Davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda 1 kv.m uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari (Toshkent viloyati markazi Nurafshon shahriga)

| № | Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi | 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari (QQS bilan birga) |
|---|---|---|
| **Ishlab chiqarish** | | |
| 1 | Yoqilg‘i ishlab chiqarish | 11 900 |
| 2 | Kimyoviy ishlab chiqarish (o‘g‘it mahsulotlari) | 11 900 |
| 3 | Neft-kimyo sanoati | 11 900 |
| 4 | Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati | 11 900 |
| 5 | Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish | 11 900 |
| 6 | Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi | 9 700 |
| 7 | Engil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati | 11 900 |
| 8 | Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish | 11 900 |
| 9 | Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati | 11 900 |
| 10 | Mashina va uskunalarni ta‘mirlash | 11 900 |
| 11 | Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari | 11 900 |
| 12 | Ichimliklar ishlab chiqarish | 11 900 |
| 13 | Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish | 11 900 |
| 14 | Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 11 900 |
| 15 | Rezina va platmassa buyumlar ishlab chiqarish | 11 900 |
| **Qurilish sanoati** | | |
| 16 | Qurilish, yo‘l va kommunal muhandislik | 9 700 |
| 17 | Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan) | 11 900 |
| 18 | Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan) | 11 900 |
| 19 | Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari | 11 900 |
| 20 | Shlakoblok ishlab chiqarish | 11 600 |
| 21 | Polietilen mahsulotlarini ishlab chiqarish | 11 900 |
| 22 | Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish | 11 900 |
| **O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati** | | |
| 23 | Yog‘och mahsulotlarini tayyorlash sanoati | 11 900 |
| 24 | Yog‘ochni qayta ishlash sanoati | 11 900 |

| | | |
|---|---|---|
| 25 | Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlari sanoati | 11 900 |
| **Engil sanoat** | | |
| 26 | To‘qimachilik sanoati | 11 900 |
| 27 | Tikuvchilik sanoati | 11 900 |
| 28 | Charm, mo‘yna va poyabzal mahsulotlari sanoati | 11 900 |
| 29 | Engil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari | 11 900 |
| **Oziq-ovqat sanoati** | | |
| 30 | Oziq-ovqat sanoati (baliq, go‘sht, yog‘-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari) | 11 900 |
| 31 | Go‘sht mahsulotlari sanoati | 11 900 |
| 32 | Sut mahsulotlari sanoati | 11 900 |
| 33 | Baliq mahsulotlari sanoati | 11 900 |
| 34 | Tegirmonchilik sanoati | 11 900 |
| 35 | Kombikorm (omuxta yem) sanoati | 9 700 |
| 36 | Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish | 11 900 |
| 37 | Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari | 11 900 |
| **Sanoatning boshqa tarmoqlari** | | |
| 38 | Tibbiyot sanoati | 11 900 |
| 39 | Poligrafiya sanoati | 11 900 |
| 40 | Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo‘yash, yuvish va matolarni qayta ishlash | 14 600 |
| **Qishloq xo‘jaligi** | | |
| 41 | O‘simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun | 4 798 000 |
| 42 | Issiqxona xo‘jaligi | 9 000 |
| 43 | Chorvachilik va parrandachilik | 5 700 |
| 44 | Baliqchilik (shu jumladan sun‘iy maydon) 1 gektar uchun | 4 798 000 |
| 45 | Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun | 3 119 000 |
| 46 | Veterinariya xizmatlari | 11 900 |
| 47 | Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tashkilotlar | 11 900 |
| 48 | O‘rmon xo‘jaligi (shu jumladan bog‘lar) 1 gektar yer maydoni uchun | 4 798 000 |
| **Transport va aloqa** | | |
| 49 | Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to‘xtash joylari va garaj) | 11 900 |
| 50 | Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari) | 3 000 |
| 51 | Avtomobillarni yuvish | 38 500 |
| 52 | Avtomobillarga yonilg‘i quyish (benzin, dizel) | 38 500 |
| 53 | Avtomobillarga yonilg‘i quyish (gaz quyish shahobchalari) | 46 800 |
| 54 | Elektromobillarni quvvatlash shahobchasi | 11 900 |
| 55 | Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari | 21 620 |
| 56 | Pochta aloqasi | 11 900 |
| 57 | Kurerlik aloqasi | 24 000 |
| 58 | Elektr-simli aloqa | 24 000 |
| 59 | Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida) | 100 800 |
| **Savdo va umumiy ovqatlanish** | | |

| | | |
|---|---|---|
| 60 | Ulgurji savdo | 33 600 |
| 61 | Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do‘konlari | 33 600 |
| 62 | Chakana savdo | 33 600 |
| 63 | Umumiy ovqatlanish | 33 600 |
| 64 | Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud) | 33 600 |
| 65 | Kitob do‘konlari | 4 700 |
| 66 | Lombardlar | 43 400 |
| **Xizmat ko‘rsatish** | | |
| 67 | Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo‘jalik buyumlarini ijaraga berish joylari | 33 600 |
| 68 | Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko‘rsatish (nusxa ko‘chirish xizmati) | 33 600 |
| 69 | Kompyuter o‘yinlarini tashkil etish | 50 400 |
| 70 | Ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq munosabatlar | 33 600 |
| 71 | Reklama, ko‘rgazmalar xizmatlari | 33 600 |
| 72 | Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari | 60 000 |
| 73 | Mehmonxona ho‘jaligi | 38 400 |
| 74 | Umumiy yashash joylari | 29 900 |
| 75 | Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari | 19 320 |
| 76 | Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta‘mirlash ustaxonasi | 28 900 |
| 77 | Hammomlar | 33 600 |
| 78 | Saunalar va basseynlar | 33 600 |
| 79 | Paxta (ilgari iste’molda bo‘lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari | 19 300 |
| **Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta‘minot** | | |
| 80 | Sog‘liqni saqlash | 11 900 |
| 81 | Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya) | 11 900 |
| 82 | Sayyohlik va dam olishni tashkil etish | 11 900 |
| 83 | Fitobar | 11 900 |
| 84 | Madaniy ko‘ngilochar markazlar (bilyard, o‘yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar) | 11 900 |
| 85 | Jismoniy tarbiya va sport | 11 900 |
| 86 | Dorixonalar | 11 900 |
| 87 | Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do‘konlari | 11 900 |
| 88 | Ijtimoiy-dorixonalar | 11 900 |
| **Ta‘lim** | | |
| 89 | Oliy va o‘rta-maxsus ta‘limi ma‘lumotli kadrlarni tayyorlash | 11 900 |
| 90 | O‘quv kurslarini tashkil etish | 11 900 |
| 91 | Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish | 11 900 |
| 92 | Bolalar umumta‘lim maktablari (nodavlat ta‘lim muassasalari uchun) | 9 700 |
| 93 | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida umumiy ovqatlanish | 11 900 |
| 94 | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida umumiy ovqatlanish | 11 900 |
| 95 | Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta‘lim muassasalari uchun) | 8 500 |
| 96 | Madaniyat va san‘at | 11 900 |

| | | |
|---|---|---|
| 97 | Ko‘rgazmalar | 11 900 |
| 98 | Madaniyat va dam olish bog‘lari | 11 900 |
| 99 | Botanika bog‘lari va zooparklar | 11 900 |
| 100 | Televideniyalar va radioeshittirishlar redaksiyalari | 11 900 |
| 101 | Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari | 11 900 |
| 102 | Fan va ilmiy xizmatlar ko‘rsatish | 11 900 |
| 103 | Avtomaktablar | 11 900 |
| **Moliya-kredit faoliyati** | | |
| 104 | Moliya, kredit va pensiya ta‘minoti (sug‘urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari) | 33 600 |
| 105 | Auditorlik faoliyati | 33 600 |
| 106 | Marketining tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo‘yicha maslahatxonalar | 33 600 |
| 107 | Bank faoliyati | 33 600 |
| **Faoliyatning boshqa turlari** | | |
| 108 | Sug‘urta va notarial xizmatlar | 33 600 |
| 109 | Sud va yuridik xizmat muassasalari | 28 900 |
| 110 | Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar | 28 900 |
| 111 | Jamoatchilik birlashmalari | 9 700 |
| 112 | Omborxonalar | 33 600 |
| 113 | Davlat tashkilotlariga ofis | 14 600 |
| 114 | Xususiy tashkilotlarga ofis | 52 600 |
| 115 | Arxiv xizmati | 14 600 |
| 116 | Tahririyat va nashriyotlar | 19 300 |
| 117 | Metallolom va ikkilamchi qog‘oz (latta) mahsulot larni to‘plash joylari | 19 300 |
| 118 | Turar joy-kommunal ho‘jaliklari | 19 300 |
| 119 | Engil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish | 38 400 |
| 120 | Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari | 29 200 |
| 121 | Laboratoriyalar | 11 900 |
| 122 | Turli xizmat turlari to‘lovlari (paynet) | 96 400 |
| 123 | Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do‘konlari | 52 600 |
| 124 | Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shahobchalari | 46 100 |
| 125 | Hunarmandchilik turlari bo‘yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o‘ymakorlik, rassomchilik, do‘ppido‘zlik, telpak, cho‘girma, chopon va x.k) | 11 900 |
| 126 | Avia kassalar (shu jumladan temir yo‘l, avtotransport va boshqalar) | 52 600 |
| 127 | Bankomatlar | 480 800 |
| 128 | Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish | 11 900 |

**) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 22-noyabrdagi 02/1-74-sonli topshirig‘iga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Savdo boshqarmasining tarkibiy qismlari uchun yopiq harbiy*

*shaharchalar, harbiy qism va muassasalari hududlarida joylashgan ko‘chmas davlat mulkidan foydalanganda ijara to‘lovining “nol” stavkasi qo‘llaniladi.*

***) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 24-iyuldagi 02/107-2670-sonli topshirig‘iga muvofiq “Tadbirkorlar va ishbilarmonlar xarakati” O‘zLiDePning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Fergan, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahar (shu jumladan, Mirobod tuman)Kengashlari, shuningdek “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati uchun partiya balansidagi tegishli davlat mulklaridan foydalanganlik uchun 2014-yil 1-avgustdan ijara to‘lovining ”nol” stavkasi qo‘llaniladi.*

****) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktyabrdagi “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 834-sonli qaroriga asosan davlat mulklari, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashgan davlat mulklari O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga a’zo bo‘lgan yosh tadbirkorlarga tuman yoki shaxar yoshlar ittifoqining tafsiyasiga asosan besh yilgacha bo‘lgan muddatga ijara haqi “nol” stavkada belgilanadi.*

*****) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-avgustdagi 14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan 2018-yildan Olimpiada chempionlari va sovrindorlariga O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasining tafsiyasiga asosan aholi gavjum hududlaridan xususiy sport tashkilotlari uchun davlat mulki va yer uchastkalari ajratiladi hamda sport yo‘nalishini saqlab qolish sharti bilan “nol” stavkada ijaraga beriladi.*

******) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-avgustdagi 609-20-sonli qaroriga muvofiq, Mudofaa vazirligi tasarrufidagi bino-inshootlar, asosiy vositalar va boshqa mol-mulklarni vazirlikning tizim tashkilotlariga ijara shartnomasi asosida berilishida ijara to‘lovining ”nol” stavkasi belgilanadi.*

*******) Oliy va o‘rta ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablar hududi (ichkarisi)da joylashgan obyektlarni (balansida saqlovchi va ijaraga oluvchilarning xodimlari va/yoki ta’lim oluvchilar uchun xizmat ko‘rsatadigan*

*oshxona, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqa faoliyatlar bo‘yicha) ijara xaqi hisoblashda yozgi ta’til davri uchun oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida 2 (ikki) oy va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 3 (uch) oy muddatga ijara to‘lovlari chegirib beriladi. Ijaraga oluvchi tashabbuchi bilan ijara xaqi hisoblanishi mumkin.*

Toshkent viloyat hokimining
2023 yil 20 yanvardagi
25-10-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

# Toshkent viloyatida Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda 1 kv.m uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari (viloyatning qolgan tuman va shaharlariga)

| № | Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi | 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga) |
|---|---|---|
| **Ishlab chiqarish** | | |
| 1 | Yoqilg'i ishlab chiqarish | 8 700 |
| 2 | Kimyoviy ishlab chiqarish (o'g'it mahsulotlari) | 8 700 |
| 3 | Neft-kimyo sanoati | 8 700 |
| 4 | Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati | 8 700 |
| 5 | Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish | 8 700 |
| 6 | Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi | 7 200 |
| 7 | Engil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati | 7 200 |
| 8 | Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish | 8 700 |
| 9 | Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati | 8 700 |
| 10 | Mashina va uskunalarni ta'mirlash | 8 700 |
| 11 | Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari | 8 700 |
| 12 | Ichimliklar ishlab chiqarish | 8 700 |
| 13 | Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish | 8 700 |
| 14 | Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 8 700 |
| 15 | Rezina va platmassa buyumlar ishlab chiqarish | 8 700 |
| **Qurilish sanoati** | | |
| 16 | Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik | 7 200 |
| 17 | Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan) | 8 700 |
| 18 | Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan) | 8 700 |
| 19 | Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari | 8 700 |
| 20 | Shlakoblok ishlab chiqarish | 8 700 |
| 21 | Polietilen mahsulotlarini ishlab chiqarish | 8 700 |
| 22 | Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish | 8 700 |
| **O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati** | | |
| 23 | Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati | 8 700 |
| 24 | Yog'ochni qayta ishlash sanoati | 8 700 |

| | | |
|---|---|---|
| 25 | Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati | 8 700 |
| **Engil sanoat** | | |
| 26 | To'qimachilik sanoati | 8 700 |
| 27 | Tikuvchilik sanoati | 8 700 |
| 28 | Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati | 8 700 |
| 29 | Engil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari | 8 700 |
| **Oziq-ovqat sanoati** | | |
| 30 | Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari) | 8 700 |
| 31 | Go'sht mahsulotlari sanoati | 8 700 |
| 32 | Sut mahsulotlari sanoati | 8 700 |
| 33 | Baliq mahsulotlari sanoati | 8 700 |
| 34 | Tegirmonchilik sanoati | 8 700 |
| 35 | Kombikorm (omuxta yem) sanoati | 7 200 |
| 36 | Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish | 8 700 |
| 37 | Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari | 8 700 |
| **Sanoatning boshqa tarmoqlari** | | |
| 38 | Tibbiyot sanoati | 8 700 |
| 39 | Poligrafiya sanoati | 8 700 |
| 40 | Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash | 10 600 |
| **Qishloq xo'jaligi** | | |
| 41 | O'simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun | 3 559 100 |
| 42 | Issiqxona xo'jaligi | 8 000 |
| 43 | Chorvachilik va parrandachilik | 4 300 |
| 44 | Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun | 3 559 100 |
| 45 | Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun | 2 313 600 |
| 46 | Veterinariya xizmatlari | 8 700 |
| 47 | Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar | 8 700 |
| 48 | O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun | 3 559 100 |
| **Transport va aloqa** | | |
| 49 | Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj) | 8 700 |
| 50 | Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari) | 2 400 |
| 51 | Avtomobillarni yuvish | 25 100 |
| 52 | Avtomobillarga yonilg'i quyish (benzin, dizel) | 32 400 |
| 53 | Avtomobillarga yonilg'i quyish (gaz quyish shahobchalari) | 35 100 |
| 54 | Elektromobillarni quvvatlash shahobchasi | 8 700 |
| 55 | Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari | 16 200 |
| 56 | Pochta aloqasi | 8 700 |
| 57 | Kurerlik aloqasi | 17 700 |
| 58 | Elektr-simli aloqa | 17 700 |
| 59 | Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida) | 74 800 |
| **Savdo va umumiy ovqatlanish** | | |

| | | |
|---|---|---|
| 60 | Ulgurji savdo | 25 000 |
| 61 | Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do‘konlari | 25 000 |
| 62 | Chakana savdo | 25 000 |
| 63 | Umumiy ovqatlanish | 25 000 |
| 64 | Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud) | 25 000 |
| 65 | Kitob do‘konlari | 3 600 |
| 66 | Lombardlar | 32 200 |
| **Xizmat ko‘rsatish** | | |
| 67 | Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo‘jalik buyumlarini ijaraga berish joylari | 25 000 |
| 68 | Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko‘rsatish (nusxa ko‘chirish xizmati) | 25 000 |
| 69 | Kompyuter o‘yinlarini tashkil etish | 37 500 |
| 70 | Ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq munosabatlar | 25 000 |
| 71 | Reklama, ko‘rgazmalar xizmatlari | 25 000 |
| 72 | Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari | 44 300 |
| 73 | Mehmonxona ho‘jaligi | 28 400 |
| 74 | Umumiy yashash joylari | 21 700 |
| 75 | Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari | 14 260 |
| 76 | Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta‘mirlash ustaxonasi | 21 700 |
| 77 | Hammomlar | 25 000 |
| 78 | Saunalar va basseynlar | 25 000 |
| 79 | Paxta (ilgari iste’molda bo‘lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari | 14 200 |
| **Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta‘minot** | | |
| 80 | Sog‘liqni saqlash | 8 700 |
| 81 | Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya) | 8 700 |
| 82 | Sayyohlik va dam olishni tashkil etish | 8 700 |
| 83 | Fitobar | 8 700 |
| 84 | Madaniy ko‘ngilochar markazlar (bilyard, o‘yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar) | 8 700 |
| 85 | Jismoniy tarbiya va sport | 8 700 |
| 86 | Dorixonalar | 8 700 |
| 87 | Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do‘konlari | 8 700 |
| 88 | Ijtimoiy-dorixonalar | 8 700 |
| **Ta‘lim** | | |
| 89 | Oliy va o‘rta-maxsus ta‘limi ma‘lumotli kadrlarni tayyorlash | 8 700 |
| 90 | O‘quv kurslarini tashkil etish | 8 700 |
| 91 | Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish | 8 700 |
| 92 | Bolalar umumta‘lim maktablari (nodavlat ta‘lim muassasalari uchun) | 7 245 |
| 93 | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida umumiy ovqatlanish | 8 700 |
| 94 | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida umumiy ovqatlanish | 8 700 |
| 95 | Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta‘lim muassasalari uchun) | 6 600 |
| 96 | Madaniyat va san‘at | 8 700 |
| 97 | Ko‘rgazmalar | 8 700 |

| | | |
|---|---|---|
| 98 | Madaniyat va dam olish bog‘lari | 8 700 |
| 99 | Botanika bog‘lari va zooparklar | 8 700 |
| 100 | Televideniyalar va radioeshittirishlar redaksiyalari | 8 700 |
| 101 | Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari | 8 700 |
| 102 | Fan va ilmiy xizmatlar ko‘rsatish | 8 700 |
| 103 | Avtomaktablar | 8 700 |
| **Moliya-kredit faoliyati** | | |
| 104 | Moliya, kredit va pensiya ta‘minoti (sug‘urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari) | 25 000 |
| 105 | Auditorlik faoliyati | 23 400 |
| 106 | Marketining tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo‘yicha maslahatxonalar | 25 000 |
| 107 | Bank faoliyati | 25 000 |
| **Faoliyatning boshqa turlari** | | |
| 108 | Sug‘urta va notarial xizmatlar | 25 000 |
| 109 | Sud va yuridik xizmat muassasalari | 21 700 |
| 110 | Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar | 21 700 |
| 111 | Jamoatchilik birlashmalari | 7 000 |
| 112 | Omborxonalar | 25 000 |
| 113 | Davlat tashkilotlariga ofis | 10 600 |
| 114 | Xususiy tashkilotlarga ofis | 39 100 |
| 115 | Arxiv xizmati | 8 900 |
| 116 | Tahririyat va nashriyotlar | 14 200 |
| 117 | Metallolom va ikkilamchi qog‘oz (latta) mahsulotlarni to‘plash joylari | 14 200 |
| 118 | Turar joy-kommunal ho‘jaliklari | 14 200 |
| 119 | Engil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish | 28 400 |
| 120 | Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari | 21 900 |
| 121 | Laboratoriyalar | 8 700 |
| 122 | Turli xizmat turlari to‘lovlari (paynet) | 71 400 |
| 123 | Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do‘konlari | 39 100 |
| 124 | Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shahobchalari | 34 200 |
| 125 | Hunarmandchilik turlari bo‘yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o‘ymakorlik, rassomchilik, do‘ppido‘zlik, telpak, cho‘girma, chopon va x.k) | 8 700 |
| 126 | Avia kassalar (shu jumladan temir yo‘l, avtotransport va boshqalar) | 39 100 |
| 127 | Bankomatlar | 356 600 |
| 128 | Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish | 8 700 |

**) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 22-noyabrdagi 02/1-74-sonli topshirig‘iga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Savdo boshqarmasining tarkibiy qismlari uchun yopiq harbiy shaharchalar, harbiy qism va muassasalari hududlarida joylashgan ko‘chmas davlat mulkidan*

*foydalanganda ijara to'lovining "nol" stavkasi qo'llaniladi.*

***) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 24-iyuldagi 02/107-2670-sonli topshirig'iga muvofiq "Tadbirkorlar va ishbilarmonlar xarakati" O'zLiDePning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Fergan, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahar (shu jumladan, Mirobod tuman)Kengashlari, shuningdek "XXI asr" ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahririyati uchun partiya balansidagi tegishli davlat mulklaridan foydalanganlik uchun 2014-yil 1-avgustdan ijara to'lovining "nol" stavkasi qo'llaniladi.*

****) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktyabrdagi "Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 834-sonli qaroriga asosan davlat mulklari, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashgan davlat mulklari O'zbekiston yoshlar ittifoqiga a'zo bo'lgan yosh tadbirkorlarga tuman yoki shaxar yoshlar ittifoqining tafsiyasiga asosan besh yilgacha bo'lgan muddatga ijara haqi "nol" stavkada belgilanadi.*

*****) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-avgustdagi 14/1-1959-sonli topshirig'iga asosan 2018-yildan Olimpiada chempionlari va sovrindorlariga O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining tafsiyasiga asosan aholi gavjum hududlaridan xususiy sport tashkilotlari uchun davlat mulki va yer uchastkalari ajratiladi hamda sport yo'nalishini saqlab qolish sharti bilan "nol" stavkada ijaraga beriladi.*

******) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-avgustdagi 609-20-sonli qaroriga muvofiq, Mudofaa vazirligi tasarrufidagi bino-inshootlar, asosiy vositalar va boshqa mol-mulklarni vazirlikning tizim tashkilotlariga ijara shartnomasi asosida berilishida ijara to'lovining "nol" stavkasi belgilanadi.*

*******) Oliy va o'rta ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablar hududi (ichkarisi)da joylashgan obyektlarni (balansida saqlovchi va ijaraga oluvchilarning xodimlari va/yoki ta'lim oluvchilar uchun xizmat ko'rsatadigan oshxona, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyatlar bo'yicha) ijara*

*xaqi hisoblashda yozgi ta'til davri uchun oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida 2 (ikki) oy va umumiy o'rta ta'lim maktablarida 3 (uch) oy muddatga ijara to'lovlari chegirib beriladi. Ijaraga oluvchi tashabbuchi bilan ijara xaqi hisoblanishi mumkin.*

Toshkent viloyat hokimining
2023 yil 20 yanvardagi
25-10-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

## Ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi koefitsentlar

### 1-Hududiy zonalar koeffitsienti (Kz)

| T/r | Shahar tumanlar nomi | Zonalar | Hududiy zonlar koeffitsienti |
|---|---|---|---|
| 1. | Nurafshon shahri<br>Olmaliq shahri<br>Angren shahri<br>Chirchiq shahri<br>Bekobod shahri<br>Yangiyo‘l shahri<br>Ohangaron shahri<br>Zangiota tumani<br>Toshkent tumani<br>Qibray tumani<br>Bo‘stonliq tumani | 1-2-3-4 zona | 1-zona -3,0<br>2-zona -2,9<br>3-zona -2,8<br>4-zona -2,7 |
| 2. | Yangiyo‘l tumani<br>O‘rta Chirchiq tumani | 1-2-3-4 zona | 1-zona -2,8<br>2-zona -2,7<br>3-zona -2,6<br>4-zona -2,5 |
| 3. | Qolgan tumanlar<br>(jami 9 ta) | 1-2-3-4 zona | 1-zona -2,6<br>2-zona -2,5<br>3-zona -2,4<br>4-zona -2,3 |

### 2-Qurilish turi bo‘yicha koeffitsienti (Kq):

- alohida turgan bino – 1,5;
- binoning ichki qismida joylashagan va taqab qurilgan – 1,0;
- binoning yuqori qismida (cherdak, boloxona) – 0,7;
- yerto‘la (yarim yerto‘la) – 0,5;
- betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar – 0,3.

### 3-Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti (Kh):

- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mavjud bo‘lganda – 0,8.
- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mavjud bo‘lmaganda – 0.

**4-Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (Ko):**

- asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda – 0,5;
- ikkinchi darajali avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda – 0,4;
- radio, uyali va peydjing aloqa antenalari o‘rnatilganda – 0,5.

Binolar va inshootlar bo‘yicha ijara to‘lovini hisoblab chiqish quydagi tarzda aniqlanadi:

**Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).**

bunda:

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka.

Toshkent viloyat hokimining
2023 yil 20 yanvardagi
25-10-0-Q/23-son qaroriga
4-ilova

**Radio, uyali va peydjing aloqa antenalari (texnik uskunalar) o‘rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to‘lovlari hisoblanishi tartibi**

**1 - Bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, bolaxona (shuningdek davlat mulki bo‘lgan inshootlarning yuqori qismi) qisimlarida o‘rnatilganda:**

**Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).**

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka.

Kz – hududiy zona koeffitsienti.

Kq – 0,7.

Kh – 0,0.

Ko – 0,5.

**2 - Bino va inshootlarga biriktirilgan shuningdek alohida ajratilgan maydonlarga o‘rnatilganda:**

**Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).**

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo‘yicha hisoblanadi).

Kz – hududiy zona koeffitsienti.

Kq – 0,0.

Kh – 0,8.

Ko – 0,5.

**3 - Bino va inshootlarning ichki qismida joylashagan xonalarga texnik uskunalari o‘rnatilganda:**

**Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).**

Ts – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka.

Kz – hududiy zona koeffitsienti.

Kq – 1,0.

Kh – 0,0.

Ko – 0,5.